


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

70730702 – *Qiymat injiniringi magistratura mutaxassisligining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLGAN:
Töshkent arxitektura-qurilish universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “01” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tavsifi

70730702 – Qiymat injiniringi mutaxassisligi bo'yicha magistratura tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda magistrant dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talablari 70730702 – Qiymat injiniringi mutaxassisligi bo'yicha magistrantlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida magistrantlarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

Magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining magistrantlari;

magistrant bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan magistrantlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari

Kapital qurilish sohasidagi yo'nalish bo'lib, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida kapital qurilish hamda ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, qurilish ishlarini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish, qurilish sohasida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish, qurilish ishlarining smeta qiymatini hisoblash va iqtisodiy samaradorligini baholash, qurilish obyektlari smeta qiymatini ekspertiza qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida qiymat nazoratini tashkil etish, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanishni tashkil etish, qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarish,

loyihalashtirish tashkilotlarida smeta bo‘limi boshlig‘i, qurilish obyektlarida usta, ish yurituvchi va qurilish boshlig‘i bo‘lib ishlash, qurilish bo‘linmalarini ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatini boshqarish, davlat apparatida (ekspert, referent, qurilish tarmog‘i mutaxassisi, buyurtmachi sifatida) bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida binolardan foydalanish bo‘yicha muhandis, smeta ishlari bo‘yicha muhandis (smetachi).

70730702 – Qiymat injiniringi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik kasbiy faoliyatining obyektlari – loyiha institutlari, oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat, ilmiy – tadqiqot tashkilotlari, mulk shaklidan qat‘iy nazar ilmiy-ishlab chiqarish va ishlab chiqarish korxonalarini, qurilish kompleksining boshqaruv organlari va tashkilotlari, banklar va lizing faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, davlat va nodavlat ta‘lim muassasalari va boshqa iqtisodiy sohalar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy-tadqiqot faoliyati; ✓

tashkiliy-boshqaruv faoliyati; ✓

loyihaviy-konstruktorlik faoliyati; ✓

pedagogik faoliyat; ✓

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati. ✓

1.2.4. Kasbiy vazifalari

70730702 – Qiymat injiniringi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistratura kasbiy faoliyatlarining sohalarini, obyektlari va turlariga muvofiq, magistrantlar quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish va tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma‘ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

arxitektura va qurilish sohasida ishlab chiqarish hamda boshqarishni tashkil etish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

Qiymat injiniringi sohasida mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralari ko'rish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

qurilish obyektlari smeta qiymatini shakllantirish va qurilish harajatlarini iqtisodiy asoslash;

arxitektura va qurilish sohasiga oid zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

qurilishda bahoni shakllantirish ishlari tarkibiga kiruvchi barcha turdagi ishlarning xarakteristikasi, klassifikatsiyasi va tasniflashning barcha usullarini qo'llash;

qurilishda texnik-iqtisodiy hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish;

kasbga oid muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

tanlov savdolarini tashkil qilish va ofertalarni shakllantirish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

loyiha-smeta hujjatlari asosida qurilishni tashkil qilish topshiriqni aniqlash, qurilish ishlari me'yorlari va standartlarini tanlay bilish;

investitsion loyihalarni tayyorlash va investitsiyalarni o'zlashtirishni nazorat qilish;

bajarilgan qurilish-ta'mirlash ishlari hajmini aniqlash va bajarilgan ish hajmi to'g'risida dalolatnoma rasmiylashtirish;

qurilish ishlarini tashkil etish bo'yicha namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash;

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

Qiymat injiniringi sohasida ish jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish hamda qurilish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

loyiha ishlarida zamonaviy usullar va avtomatlashtirilgan kompyuter-texnik vositalaridan foydalanish;

ishlab chiqiluvchi loyihalar va texnik hujjatlarni vazifalar, standartlar, me'yorlar, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlarini ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish;

qurilishning bosh rejasi va tarkibidagi hujjatlarni;

qurilishni tashkil etish uchun boshlang'ich ruxsat beruvchi hujjatlarni;

loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashning asosini tashkil etuvchi me'yoriy-qonuniy hujjatlarni;

bino va inshootlarning ishchi loyihalari turlari va tarkibini;

smeta ishida foydalaniladigan axborot texnologiyalari va dasturiy vositalar;

smeta ishida me'yoriy-qonuniy hujjatlardan foydalanish;

investitsiya dasturi smeta qiymatini hisoblash va investitsiyani o'zlashtirish grafigini tuzish;

qurilish-montaj ishlari smeta hujjatlarini ekspertiza qilish;

qurilishi tugallangan obyektlarni iqtisodiy ekspertiza qilishni va obyektga qilingan real xarajatlar miqdorini aniqlash;

qurilish korxonasining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

mashina va mexanizmlar xarajatlari miqdorini aniqlash;

qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlari o'tkazish;

qurilishning dastlabki qiymati va haqiqiy qiymati o'rtasidagi tafovutni aniqlash;

bosh pudratchi va subpudrachilar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish;

qurilish obyektining ishchi loyihalari asosida lokal, obyekt va jamlangan smeta hisobini joriy narxlarda ishlab chiqish;

bino va inshootlarni kapital va joriy ta'mirlash ishlari hajmini aniqlash, nosozlik dalolatnomalari tuzish va ular asosida smeta hujjatlarini tayyorlash;

qurilish jarayonining keyingi bisqichida bekilib ketadigan ishlarni hisoblash va yopiladigan ish hajmi dalolatnomasini rasmiylashtirish;

obyektlarning kapitalizatsiya stavkasini aniqlash va diskontlash stavkasini qo'llash, daromad va xarajatlar to'g'risida binoni rekonstruksiyalashga hisobot tayyorlash;

bino va inshootlar uchun ijara shartnomasi tuzishda kutilayotgan iqtisodiy samara darajasini aniqlash;

investitsion loyihani tuzish va investitsiyalash jarayonini tahlil qilish;

bajarilgan qurilish-ta'mirlash ishlari hajmini aniqlash va bajarilgan ish hajmi to'g'risida dalolatnoma rasmiylashtirish;

qurib ishga tushirilayotgan bino va inshootlarni foydalanishga topshirishda balans qiymati smetasini tuzish;

bajarilgan qurilish montaj ishlarini hisoblash;

qurilish materiallari, resurslariga ehtiyojni tuzish va ularni optimal taqsimlash; qurilishi tugallangan bino va inshootlarni foydalanishga topshirishda ishchi va davlat qabul komissiyasi nomidan rasmiylashtiriladigan hujjatlarni tuzish kabi *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Mutaxassislik bo'yicha ilmiy amaliyot (stajirovka) o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish, fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish, sohaga tegishli amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashni ko'zda tutadi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	ITM 1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M 1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.03	ILT 1110	Investision loyihalar tahlili	300	10	1,2
1.04	KQTS 1204	Kapital qurilishda tanlov savdolari	120	4	2
1.05	QBShSI 12310	Qurilishda bahoni shakllantirish va smeta ishi	300	10	2,3
1.06	QXB 1106	Qurilishda xarajatlarni boshqarish	180	6	1
1.07	RB 1104	Risklarni boshqarish	120	4	1
2.00		Tanlov fanlari	540	18	2,3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	540	18	2,3
		Jami	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITMDT 3130	Ilmiy-tadqiqot va magistrlik dissertatsiyasini	900	30	1,2,3,4

3.02	IPI 3112	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IA(S) 3418	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	540	18	4
		Jami	3600	120	
Kvalifikatsiya		Smetachi muhandis, pedagog-tadqiqotchi.			
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, kapital qurilish, qurilish materiallari, binolar konstruksiyalari, qurilish iqtisodiyoti, investitsiyalarni o'zlashtirish, qurilishda tanlov savdolari, qurilish obyekti, qurilishda bahoni shakllantirish, loyiha-smeta hujjatlari, ko'chmas mulk, baho siyosati, loyiha-smeta hujjatlari ekspertizasi, korxonani baholash, iqtisodiy ekspertizani rejalashtirish, binolarni kapital ta'mirlash, smeta ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti


Rektor  v.v.b. B.A. Tulaganov


202_ yil "___" _____

M.O'.



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**
Direktor  M. Boltabayev



202_ yil "___" _____

M.O'.

**Islom Karimov nomidagi
Toshkent Davlat Texnika Universiteti**

Rektor  S. Turabdjano



202_ yil "___" _____

M.O'.

"SMETA-LOYIHA"

MCHJ direktori

 D. Butunov

202_ yil "___" _____

M.O'.



"SILVER RAIN PROJECT"

MCHJ direktori

 N. Halilov



202_ yil "___" _____

M.O'.